

2022-yil 18-noyabr

## “O'zkimyosanoat” AJda O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i qabul qilinganligining 31 yilligi munosabati bilan “Muqaddasdir Vatan bayrog'i” shiori ostida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi



Shuningdek, tadbir doirasida markaziy apparat xodimlari o'rtasida o'tkazilgan “Mening bayrog'im” esselar tanlovining taqdirlash marosimi ham bo'lib o'tdi. Tanlovda 1-o'rinni Tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, import xaridlarni optimallashtirish va jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv bo'limi bosh mutaxassisi Mirzayeva Maftuna, 2-o'rinni Sifatni boshqarish va texnik qayta jihozlash bo'limi bosh mutaxassisi Keldiyorov Husan, 3-o'rinni esa jamiyat kutubxonasi

xodimi Kengesbayeva Ulbo'sinlar egalladi.

“Muqaddasdir Vatan bayrog‘i” shiori ostida o‘tkazilgan ma’naviy-ma’rifiy tadbir videokonferensaloqa shaklida o‘tkazildi. Tadbirda barcha tarmoq korxonalari va tashkilotlari ishchi-xodimlarini keng gamrab olgan holda, badiiy chiqishlar bilan ishtirok etdi. “Dehqonobod kaliy zavodi” AJning yosh xodimlari tomonidan bobomiz Najmiddin Kubro haqida sahnalashtirilgan chiqishlar barchada katta taassurot qoldirdi. Bundan tashqari, tadbirda she’rlar, qo’shiqlar yangradi, videorolik namoyish etildi, hattoki, yakka raqs ham ijro etildi.

Ta’kidlash lozimki, bayrog‘imiz respublikamiz dunyoda xalqaro hamjamiyatning tenglar ichra teng a’zosi ekanligini anglatadi va o‘zida milliy-madaniy an’analarimizni mujassamlashtiradi. U bizning hech kimdan kam emasligimiz hamda aslo kam bo‘lmasligimizni yaqqol namoyon etadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, bayrog‘imizni e’zozlash fuqarolarda o‘zining qadr-qimmatiga, o‘z mamlakatiga va shaxsiga bo‘lgan ishonchni yanada mustahkamlaydi.




BARPO ETISHGA QAROR QILGAN EKANMIZ, IKKITA MUSTAHKAM  
USTUNGA TAYANAMIZ. BIRINCHISI - BOZOR TAMOYILLARIGA  
ASOSLANGAN KUCHLI IQTISODIYOT. IKKINCHISI - AJDODLARI-  
MIZNING BOY MEROSI VA MILLIY QADRIYATLARGA ASOSLANGAN  
KUCHLI MA'NADAR. *Shavkat Mirziyoyev*



"O'zkiyosanoat" AJ  
MATBUOT XIZMATI







## "O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati

**source:**

*"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati*

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/davlat-bayrog-i-qabul-qilinganligining-31-yilligi-munosabati-bilan-manaviy-marifiy-tadbir-otkazildi>